



Volume 3, Issue 3(16), 2023

# Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

**Chief Editor:**

**Sharipov Shavkat Safarovich**

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

**Deputy Chief Editor:**

**Sodikov Khamid Makhmudovich**

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

**Orishev Jamshid Bahodirovich**

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

**Members of the editorial board:**

**Ubaydullaev Sadulla**, dotsent

**Ismailov Tuychi Djabbarovich**, dotsent

**Kholmatov Pardaboy Karabaevich**, dotsent

**Umarov Rakhim Tojievich**, dotsent

**Murtazaev Melibek Zakirovich**, dotsent

**Abduraimov Sherali Saidkarimovich**, dotsent

**Taylanov Nizom**, senior teacher

**Tagaev Khojamberdi**, senior teacher

**Tugalov Farkhod Karshibayevich**, dotsent

**Alibaev Turgun Chindalievich**, PhD

**Yusupov Mukhammad Makhmudovich**, PhD

**Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich**, PhD

**Irmatov Fozil Muminovich**, PhD

**Editorial Representative:**

**Jamshid Orishev**

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK  
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali

Журнал “Физико-технологического образование”

“Journal of Physics and Technology Education”

**Indexed By:**



**Published By:**

<https://phys-tech.jdpu.uz/>  
Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2023-06-05

**MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ**

<b>№</b>	<b>MUALLIFLAR/ AUTHORS/ АВТОРЫ</b>	<b>MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ</b>	<b>SAHIFALAR/ PAGES / СТРАНИЦЫ</b>
1	<i>Umarov Rahim , Yusupov Kirmon</i>	<i>Sharq mutafakrlarining aqliy mehnat va tarbiya haqidagi qarashlari</i>	5-9
2	<i>Umarov Rahim, Isoqov Shohruh</i>	<i>Xalq hunarmandchiligi bo'yicha mashg'ulotlarni otkazish metodikasi</i>	10-14
3	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanini o'qitishda internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlari</i>	15-19
4	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanida o'quv jarayonida elektron o'quv vositalaridan foydalanish metodikasi</i>	20-23
5	<i>Абдувасиев Садрор Баҳром ўғли</i>	<i>Альтернативные источники энергии-перспективы их использования и развития в узбекистане</i>	24-27
6	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom ugli</i>	<i>Methodology for using electronic learning tools in the educational process on the subject "Physics"</i>	28-31
7	<i>Igamqulova Zilola , Umirov Javlonbek</i>	<i>Oy tutilishi va uning shartlari</i>	32-34
8	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Modaning tarkibi, funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlari</i>	35-38
9	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Jamiyat hayotida liboslarning o'rni</i>	39-41
10	<i>Yo'ldoshev Mirjalol , Allamuradov Husan, Rustamov Yoqubjon</i>	<i>Fotorezistorlarni dastur yordamida boshqarishni talabalarga o'rgatish</i>	42-46
11	<i>Orishev Jamshid, Majidova Hurriyat</i>	<i>O'quv mashg'ulotlarni tashkil etishda media ta'limning didaktik imkoniyatlari</i>	47-51
12	<i>Orishev Jamshid, O'rozov Bobur</i>	<i>Texnologiya fanini o'qitishda media ta'lim vositalaridan foydalanish</i>	52-55
13	<i>Rahimov Azizbek, Yaxshiboyevich</i>	<i>Savodxonlik elementlarini takomillashtirish - pedagogik muammo sifatida</i>	56-59
14	<i>Rahimov Azizbek, Parmanova Jumagul</i>	<i>Rassom asarlarida ayol timsoli</i>	60-64
15	<i>Rahimov Azizbek, Normatov Shuxrat</i>	<i>Milliy ruxdagi ganch o'ymakorligi</i>	65-69
16	<i>Ortiqova Ozoda, Rahmatva Shahlo</i>	<i>Korsetli libos tikish tarixi va rivojlanish bosqichlari</i>	70-73
17	<i>Alqorov Qodir Xolmatovich</i>	<i>o'quvchilarni texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashda fizika bilan texnika fanlari</i>	74-78

		<i>aloqadorligi</i>	
18	<i>Alqorov Qodir, Yusupov Kermom</i>	<i>Ta’lim tizimida ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashning pedagogik muammolari</i>	79-82
19	<i>Тугалов Фарход, Мамадиёров Уралжон</i>	<i>Физика ўқитишда талабаларнинг илмий дунёқарашини шакллантиришда муаммоли таълим технологияларининг ўрни</i>	83-86
20	<i>Тугалов Фарход, Беркинова Чехроза</i>	<i>Фундаментал фанларнинг аҳамияти</i>	87-91
21	<i>G`ofurova Aziza Xidirnazar qizi</i>	<i>Oliy ta’limda ixtisoslik fanlarni o‘qitish jarayonini takomillashtirish</i>	92-95
22	<i>Ortiqova Ozoda, Nazirova Nafisa</i>	<i>Milliy liboslarda bezaklar va pardoz- andozlarning ishlatilishi</i>	96-100
23	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>To’quvchilik san’ati va uning o’ziga xosligi</i>	101-104
24	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish prinsiplari</i>	105-107

## RASSOM ASARLARIDA AYOL TIMSOLI

**Rahimov Azizbek Yaxshiboyevich<sup>1</sup>, Parmanova Jumagul Idrisqul qizi<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>A.Qodiriy nomidagi JDPU, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrası o’qituvchisi, <sup>2</sup>Professional ta’lim: rangtasvir (dastgohli) yo’nalishi talabasi  
rahimovazizbek09@gmail.com

**Annotatsiya.** San’atning eng qiyin turlaridan bo’lmish rassomlik san’atida ayollar tomsolini yaratgan buyuk musavvirlarimiz talaygina. Raxim Axmedov, Chingiz Aytmatov, Ro’zi Choriyev, Akmal Nur, Baxodir Jalolov, Alisher Mirzayev, S.Abdullayev, S.Raxmetov, A.Ikromjonov, L.Ibragimov, J.Usmonov, G’.Qodirov, N.Imomov, M.Isanov va boshqa rassomlar ijodi bu jihatdan, ayniqsa, diqqatga sazovor. Ayollarni o’zgacha tarzda tasvirlab, ularning ichki kechinmalarini, xis-tuyg’ularini o’z asarlarida yorqin bayon eta olgan rassomlarimizdan biri Akmal Ikromjonovdir.

**Tayanch so’z va iboralar:** Ijod olami, o’tmish zamonlar, muloxazalar, ma’naviy ehtiyoj, avtoportret, portret.

**Аннотация.** Есть много замечательных художников, создавших образ женщины в живописи, одном из самых сложных видов искусства. Рaxим Axмедов, Чингиз Айтматов, Рузи Чориев, Акмаль Нур, Баходир Жалолов, Алишер Мирзаев, С.Абдуллаев, С.Рахметов, А.Икромжонов, Л.Ибрагимов, Дж.Усмонов, Г.Кадыров, Н.Имамов, М.Работа Исанов и другие художники в этом отношении особенно примечательны. Акмаль Икромжанов – один из наших художников, который смог неповторимо изобразить женщин и выразить в своих работах их внутренние переживания и эмоции.

**Ключевые слова и фразы:** Творческий мир, прошедшее время, размышления, духовная потребность, автопортрет, портрет

**Annotation.** There are many great artists who have created the image of women in the art of painting, one of the most difficult forms of art. Raxim Akhmedov, Chingiz Aitmatov, Ruzi Choriyev, Akmal Nur, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, S.Abdullayev, S.Rakhmetov, A.Ikromjonov, L.Ibragimov, J.Usmonov, G.Kadirov, N.Imamov, M The work of Isanov and other artists is particularly noteworthy in this regard. Akmal Ikromjanov is one of our artists who was able to portray women in a unique way and express their inner feelings and emotions in his works.

**Keywords and phrases:** Creative world, past tense, reflections, spiritual need, self-portrait, portrait.

San’atning eng qiyin turlaridan bo’lmish rassomlik san’atida ayollar tomsolini yaratgan buyuk musavvirlarimiz talaygina. Raxim Axmedov, Chingiz Aytmatov, Ro’zi Choriyev, Akmal Nur, Baxodir Jalolov, Alisher Mirzayev, S.Abdullayev, S.Raxmetov, A.Ikromjonov, L.Ibragimov, J.Usmonov, G’.Qodirov, N.Imomov, M.Isanov va boshqa rassomlar ijodi bu jihatdan, ayniqsa, diqqatga sazovor.

Ayollarni o’zgacha tarzda tasvirlab, ularning ichki kechinmalarini, xis-tuyg’ularini o’z asarlarida yorqin bayon eta olgan rassomlarimizdan biri Akmal Ikromjonovdir.

Ijod olamida shundaylar borki, biri o’zi yashagan muhitdan tashqariga chiqqa olmaydi, boshqasi bu muhitga sig’masdan, o’ziga xos badiiy estetik olam izlaydi, yana biri o’tmish zamonlar, bugungi xayot muammolari bilan bog’laydi, ba’zi ijodkorlar xayol parvozi va tafakkuri qanotida kuch berib, uzining orzularini ifodalaydi.

O’zbekiston Badiiy Akademiyasining haqiqiy a’zosi, O’zbekiston xalq rassomi, Respublika Davlat mukofoti lauriyati Akmal Ikromjonovning xayoti va ijod yo’li haqida o’ylanganda ana shunday muloxazalar kishini band etadi.

“Ijodkor ruxiyatida, deydi rassom, - vaqt o’tishi bilan, zamona zayli tufayli turli o’zgarishlar sodir bo’lar ekan. 1990-1992 yillardan keyin portret san’atiga ma’naviy ehtiyoj seza boshladim. Bu yillar men uchun tarixga qiziqish davri bo’ldi. Ayni paytda ustoz rassomlarning xatoyi haqiqati va inson siymosini xaqqoniy tasvirlash yolini davom ettirishga ishtiyoqim ortdi, Avtoportret, keyin qizlarimning rasmlarini ishlay boshladim...”

Akmal Ikromjonovning bu davrda ishlagan portretlarida insonning ichki va tashqi go’zalligi rang va kolorit yaxlitligi orqali, plastik tiniqlikda ochib beriladi.

Yaxlit shakl olgan ranglar rassom chizgan obrazning ichki va tashqi go’zalligiga mos badiiy-estetik ma’no kasb etadi. Akmal Ikromjonovning “Avtoportret”, “Komila”, “Xosiyat”, “Malika”, “Madina” kabi asarlari inson qalbida iliq nur, ma’naviy evrilish, xayolida ajoyib tasavvurlar uyg’otadi. Rassom go’zallik va nafrat milliy va umumbashariy estetik qadryatlarning ifodasi ekanligini o’z polotnolarida yorqin ko’rsatib kelmoqda.

Rassomning o’z asarlarida ranglar jilosini nozik xis qilishi va ularni maxorat bilan qo’llat bilishi, rangtasvirda ma’nolarni gavdalantirishi, mayda detallarga loklagandek yaltiratib, pardoz berishi yoki xaykaltaroshlikdagidek seziluvchan notekisliklar xosil qilishi barchasi barchaning diqqatini jalb etadi. Tomoshabin uning asarlarida borliqni ko’zguda ko’rayotgandek xis etadi.

San’at ko’ngil iztirobini, V.Kandinskiy iborasi bilan aytganda, “ruxiy tebranish” ni qo’zg’atish zarur. Musavvir xam o’z asari orqali xis-tuyg’u, kayfiyat uyg’otishi lozim. Bunga erishish esa g’oyatda qiyin. Buning uchun rassomda tug’ma iqtidor bo’lishi kerak. Rassom xaotda yuz beradigan o’zgarishlarni, zamon surati va tarixiy o’zarishlarni aniq ilg’ab olishi lozim. Rangtasvirning nodir asarlari texnik bilim, malaka va maxorat uyg’unligida dunyoga keladi. Bu jarayon aql bilan anglab bo’lmaydigan, faqat qalb orqali xis qilish mumkin bo’lgan ruxiy xolatda kechadi.

Akmal Ikromjonov yaratgan portretlar uning Yevropa post-renessansli texnikasini moxirona egallaganini ko’rsatadi. Uning asarlari sho’ro davri rangtasviriga xos ijtimoiy portretlardan inson ruxiyatini ta’sirchan ifoda etishi bilan ajralib turadi. Akmal Ikromjonov 1980 yillar oxirida ijtimoiy-dramatik mazmunga ega kartinlar yaratdi. Jamiyatdagi jarayonlar odamlarni loqayd qoldirayotgan bir vaqtda, juda nafis ishlangan zargarlik buyumidek rangtasvir asarlariga extiyoj juda ortgan edi. Ayollarning o’zini yoqib yuborishiga bag’ishlagan “Alanga” kartinasi, rangtasvir texnikasi yorqin ixtiroga aylanib, qizil, yashil kolorit ikki tomonlama oppoq libosga o’rangan ayolning ramzi sifatida tasavvur uyg’otadi. Yashil rang – mavjud xayot, qizili esa boshqa xayotga o’tishdir. Kartinadagi torgina, qora yo’l – yo’l chiziqlar taqdir oldida chorasizlik g’oyasini aks ettiradi. Kartinadagi kolorit uni plakatga o’xshashlikdan ximoya qiladigan, xis – xayajonni ifodalaydigan, ta’sirchan obrazli bo’shliqni tashkil etadi. O’sha umumlashtirilgan stilistika va o’sha ramziy qizil, yashil, oq rangli palitra musavvirning afg’on urishiga bag’ishlangan.

Rassomning fikr-o’ylarni falsafiy umumlashtirishga intilishi o’ziga xos mavzuli kartinalar turkumini yaratish uchun asos bo’ldi. Ularda milliy muammolar bilan vir qatorda, adabiy-mifologik obrazlar va syujetlar xam o’z aksini topa boshladi. Qadrdon zaminning umumlashma obrazlarini msavvir “Onlar zamini” (1998 y.) kartinasi ifodalagan. Qiyofalar va liboslar bichimi, rangidan ko’rinib turibdiki, bunga uning Surxondaryo voxasiga qilgan ijodiy safari bilan bog’liq xotiralari va qoralamalari asos bo’lgan. Umumlashgan plastika, shakllarning o’tkir qirralri ustun bo’lgan “Surxondaryo ayollari” turkum asarlaridan farqli o’laroq, bu kartinada musavvir sinchkovlik va aniqlik bilan liboslarning detallari, chexralar, maishiy buyumlar va manzarani yozadi. Ayollarning chexrasi fotografik jixatdan ishonarli va ayni chog’da epic jihatdan ulug’vordir. Musavvirning mazkur ishlarida qo’llangan plastik uslub va rangtasvir texnikasi usullari ishonarli va majoziydir. Jumladan, ko’p bolali o’rta Yashar ayol “Bodomxon aya” portretini olaylik. Bu ayol yorqin sariq, qizil gular bilan bezatilgan ko’ylak kiygan. Boshida oq ro’mol. Uning portreti tik chiziqli fonda, to’q moviy rangda yozilgan. Bodomxon ayaning orqa tomonida esa yonlamasiga maxalliy manzarani ramziy aks ettiruvchi ko’p gulli chizgilarning so’nib borishi tasvirlangan. Bunday usul qiyin paytlarda xam xayotga ishonchini yo’qotmasdan va o’zini qo’lga ola biladigan Bodomxon aya obrazini yorqin aks ettirilish imkonini beradi.

1992 yilgi “Avtoportret” uslub va mazmun jixatdan boshqachachiqdi. Rassom ushbu portretida obrazni yangicha tushunishga intilgan. Mazkur “Avtoportret” ning rangtasvir yechimi ham oz’iga xos. Shu yili musavvir o’sha rangtasvir

uslubida qizlari Komila, Malika va Xosiyatning turkum portretlarni yaratdi. 1993 yili esa Yaponiyaning O‘zbekistondagi elchisi janob Magasaki portretini ishladi. Bu turkum portretlarda musavvir o‘zining ortiqcha detallaardan xoli uslubiga amal qilib, bir tusli fondan foydalangan. Ammo qizlarining o‘ziga xos tabiatlarini xisobga olib, xar bir xolatda tegishli ravishda asosiy ranglar spektrini qo‘llagan. Ko‘ylaklarning rang va bichimi, shuningdek, portreti ishlanayotgan obrazlarning xolatlari, ayrim detallari ham uning nazaridan chetda qolmagan. “Malika porterti” qizil-jigarrang tuslarda bajarilgan. Uning gavdasi tomoshabinga ichkaridan chiqib kelayotgandek tuyuladi. Malikaning qo‘llarini nazokat bilan qovushtirgancha diqqatini bir yerga jamlab turishi, nigihlaridagi o‘ychanlik uning maqsad sari intiladigan, mustaqil fikrga ega shaxs ekanligini bildiradi.

“Komila portreti” ni ishlashda rassom ko‘tarinki rux uyg‘otuvchi ranglardan foydalangan. Asarda qo‘lida sevimli o‘yinchoq‘i – qora kuchukchani tutib turgan kichkina qizaloq yorqin jigarrang bilan iliq fonda tasvirlangan. Qizaloq obrazining ta’sirchanligiga qizil, qora va jigarrang buyoqlarning qarama-qarshi o‘yini asosida erishilgan. “Xosiyat portreti” esa oq va ko‘ylagidagi no‘xotchalarining buyoqlari uyg‘unlashtirilib, qoramtir kulrang tusda yozilgan. Qo‘lida olma ushlab o‘tirgan qizaloq, bir oz betoqat, xolati parishon. Uning bir oz ehtiyotkorona boquvchi nigohi ancha xissiyotga beriluvchan ekanligidan dalolat beradi. Buni uning nigohidan xam anglab olsa bo‘ladi.

Rassom “Zuhraning portreti” va “Elmiraning portreti” asarlarini yaratdi. Musavvir avtoportretida obrazlarini yuksak martabali amaldorlarning tarixiy libosida tasvirladi. Kenggina muynali yoqaga aslzodalik ramzi sifatida taqilgan qimmatbaxo oltin zanjir barcha tafsilotlari bilan yozilgan. Liboslar ola-chalpoq shu‘la tarqatgan yaltiroq moviy va qizil movutdan bo‘lib, ular obrazga ulug‘vorlik baxsh etadi. Biroq u ko‘zlarini qisgancha ayyorona jilmayib turganidan zamondoshlarimiz xayotiga kinoya bilan qarayotganini sezdirib qo‘yadi. Akmal Ikromjonov zamondoshlarini shu davr liboslarida ko‘rsatish orqali inson tabiati jumboq ekanligi, turli taqdirlarni, kishilarning ma’naviy olami, qalb kechinmalarini, tarixiy davr va makondan qat’iy nazar, xar bir kishida o‘ziga xos xususiyatlar bo‘lishi va ayni choqda ular o‘rtasida o‘xshashlik, yaqinlik mavjudligini ko‘rsatishga intilgan. Rassomning bu maqsadi moviy Feruza tuslaridagi qadama naqshli, tillarang zrgarlik buyumlari bilan bezalgan Zuhraning portretida yanada aniq seziladi.

“Adras” asarida esa milliy matomiz jozibasi ifodalangan. O‘zbek go‘zalining boshqalardan farqli siymosi to‘g‘risida aniq tasavvur uyg‘otadigan matolardan biri-adrasdir. Adras Turkiston tarixini kuylaydi. Bu esa rassomning umumiylikka,



naturaning murakkab xarakterini ochishga ishtiyoqidan dalolatdir. Uchta qomatdan iborat bu kompozitsiyada o’rtada erkak kishi uning ikki tomonida adras libos kiygan ayollar tasvirlangan.

Akmal Ikromjonov o’z asarlarida ayol obrazini, uning qomatini va ichki tuyg’ularini tasvirlashga alohida e’tibor beradi. Uning “Malika” , “Madina” , “Xosiyat” asarlarida ham bu nozik xilqatning chexrasi xamisha porloq, quvnoq bo’lishini ko’rsatishga xarakar qilinganligi bilinib turadi. Girix chiziqlar ishtirokida paydo bo’lgan xar bir bo’lak naqshinkor ko’rsatilgan.

### **Adabiyotlar ro’yxati**

1. “EGO: Zamonaviy san’atning taxlili” T.: “O’zbekiston” 2010. 115-bet.
2. Xudoyberdiyev, M. (2021). “MANZARA RANGTASVIRINI” O ‘QITISHDA TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).
3. Xudoyberdiyev, M. (2021). UMUMIY O ‘RTA TA’LIM TIZIMIDA TASVIRIY SAN’AT O ‘QUV FANINI O ‘QITISHNING ANAMIYATI. *Физико-технологического образования*, (5).
4. Жабборов, А. Ж., & Пардаев, Б. А. (2020). ОБУЧЕНИЕ В РАМКАХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО И ТРУДОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Научное знание современности*, (1), 19-22.
5. Pardayev, V. (2020). ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБ-ҲУНАРГА ЙЎЛЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ВА ЎҚУВ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИГА ТАТБИҚ ЭТИШ. *Журнал музыки и искусства*, 1(1).
6. Kholmuratovich, M. K., Mardanaqulovich, A. S., Ravshanovich, J. R., Sharifovna, K. U., & Shodiyevna, B. O. (2020). Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05).
7. Khudoynazarova, O. OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA INSON PORTRETINI TASVIRLASHDA PLASTIK ANATOMIYANING NAZARIY ASOSLARI.
8. Boltaboevich, B. B., & Ogiloy, K. (2008). Master of historical portrait genre, a teacher who created a school in the field of fine arts people's artist of Uzbekistan professor Malik Nabiev (1906-2008).